






**“BUYUK VA MUQADDASSAN MUSTAQIL
VATAN” NOMLI TARBIYAVIY SOAT TADBIR
STENARIYSI VA “O’ZBEKISTON
JANNATMAKON YURT” NOMLI BIR SOATLIK
MODULLI DARS ISHLANMASI**



Ushbu metodik qollanma Qibray tumanidagi boshlang'ich sinflar, uslub birlashmasining № ____ sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi.

Metodik qo'llanma 45-maktab metod kengashining № ____ sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi.

Metodik qo'llanma Vatanga bag'ishlangan tadbirda va Mustaqillik darslarida foydalanish uchun o'qituvchilarga tavsiya etiladi.

Mustaqillikning ---yilligiga bag'ishlangan “Buyuk va muqaddasan Mustaqil Vatan !” nomli tadbir stenariysi. (Tarbiyaviy soat ertaligi)

Tadbir oldidan sahna bayramona bezatiladi, Vatanga bag'ishlangan “**Vatan**” qo'shig'i qo'yiladi. Devoriy gazeta va plakatlari osiladi.

Barcha o'quvchilar “**Buyuk va muqaddasan mustaqil Vatan**”deya ta'zim qilishadi.

Ustoz: Assalomu alaykum aziz o'quvchilar va ustozlar, Vatanimizning 20-yilligiga bag'ishlangan “**Buyuk va Muqaddasan mustaqil Vatan!**” nomli tadbirimizga xush kelibsiz.

Bu dunyoda yurt ko'p, chaman ko'p ,bizlar uchun o'z diyorimizdan-da go'zallroq ,xushhavoroq ,yagonaroq bog'u-bo'ston yoq, O'zbekiston o'zbek xalqining Vatani muqaddas sajdagohidir .

Vatanni sevish ardoqlash, uni ko'klarga ko'tarish barchamiz uchun sharafdir.

**Dovrug'i tilga doston bo'lgan yurt
Shavkati ham shoni osmon bo'lgan yurt.
Mehr-muhabbati ummon bo'lgan yurt
Har yo'g'i chamanzor bog'u bo'stonim
Dunyoda –yagonam O'zbekistonim.**

**1-boshlovchi; Salom -kalamning boshi
Hamda odob quyoshi
Salom bo'g'lar qalblarni
U barchaning yo'ldoshi.**

**2-boshlovchi ; Go'zal yurt, do'stu yoshlar.
Sizga mehrimni berdim.
Ta'zim ila degaymiz,**

Barcha o'quvchilar : **Assalomu- alaykum.**

1-o'quvchi : Assalom ,20 yoshga to'lgan Vatanim , tug'ilgan kuning muborak! Aziz vatanim !Har bir kishi tug'ilib o'sgan shahri va mamlakati shu kishining Vatani deyiladi. Har kim tug'ilgan , o'sgan yerini jonidan ortiq suyadi.

2-o'quvchi : Biz Turkistonliklar, o'z vatanimizni jonimizdan ortiq ko'rganimizdek, arablar Arabistonlarini , qumliklar issiq cho'llarini , eskimoslar shimol taraflarini, eng sovuq qor muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yahshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilar edilar.

Ustoz : Bolajonlar Vatanga oid, vatan ravnaqi aks etgan qanday maqollardan bilasiz?

-“Bulbul-chamanni sevar, odam vatanni”,

“Eldan ayrilguncha, jondan ayril,”

“O’zga yurtida sulton bo’lguncha ,o’z yurtida gado bo’l”

Yo’ridan ayrilgan yeti yil yig’lar, yeridan ayrilgan o’lguncha yig’lar.

Ustoz: Barakalla, aziz o’quvchilar, shunday tinch ,osuda, faravon Vatanimiz qadriga yetish bizning vazifamiz.

3-o’quvchi: **Urush ko’rmasin bolam**
 Tinch bo’lsin, deydi, olam
 Yurtin sevgan har odam
 Tinchlikni istar mudom
 Har qarich tuproq aziz,
 Tinchlik siridir laziz.
 Shod yashasin o’g’il-qiz
 Ezgulikka to’lib iz.

Magnitafondan (Tinchlik qo’shig’i yangraydi, sahnalashtirilgan raqs ijro etiladi)

Ustoz: Aziz o’quvchilar, sizlar Vatan deganda nimani tushunasiz ? (O’quvchilar she’rlarda Vatanga ta’rif berishadi.)

4-o’quvchi: **Vatan o’zi ne ekan.**
 Xayolga toldim bir zum.
 Unda gulmi yo tikan
 Bariga qilay ta’zim
 Siqim tuproq bir Vatan
 Ayro tushmagayman bir zum
 Bog’lari chaman –chaman.

5-o’quvchi; **Mehribon ota-ona,**
 Parvona bo’lay o’zim
 Bosh qo’yganim ostona
 Unga ham qilay ta’zim
 Kumush qishli dalalar
 Qor-la qiladi bazm

6-o’quvchi **O’ynar tengdosh bolalar**
 Ularga qilay ta’zim.
 Kelsa bahor chog’lari
 To’g’lar yanada azim.
 Kelinchakdek bog’lari
 Bariga qilay ta’zim.

Ustoz;-Barakalla, Vatan so'zi ona so'zi bilan hamisha yonma-yon keladi: Bu bejiz emas, chunki necha ming yillardan buyon ne-ne ulug' farzandlarni o'z quchog'iga olgan ona-yer ajdodlarimizga ,buyuk allomalar ,shoirilar va sarkardalarga onalik qilgan. Vatan bizning millatimiz va kelajak avlodimiz, aziz va mo'tabar onasidir.Shuning uchun ham dunyoda onamizdan yaqin va qadrli zot bo'lmaganidek , Vatan so'zidan ortiq muqaddas va qimmatli kalima yo'q.(qo'shiq ijro etiladi.)

Ustoz: -Bolajonlar, Prezidentimiz I.A.Karimov bobomiz sizlarning komil inson bo'lib yetishisningiz yo'lida keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Maktabni bitirgach kollejlarda bilim olish bilan birga kasb-hunar egalari ham bo'lasiz.

Bu maqsad yo'lida "Yoshlarni boshlang'ich sinfdanoq kasbga yo'naltirish " Chora-tadbirlari yo'lga qo'yilmoqda' kasbli, hunarli, insonlarni qo'llab – quvvatlash maqsadida Prezidentimiz **2011-yilni "Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik yili"** deb e'lon qildilar.

**Yoshlikda qaynar kuch-u shijoat
Bu kuchni behuda ishlatma faqat.
Yoshlikda olgan ilm-u ma'rifat.
Kun kelib o'zingga asqotar albat.**

"Yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir"

Bolalar , Vatanimizda yashab o'tgan ulug' ajdodlarimiz,taniqli sport ustalarini ibratli bolaliklaridan misollar keltiring .

1-o'quvchi " To'rt yoshida Navoiy . "

-Ulug' mutaffakir bobomiz Alisher Navoiy to'rt yoshida o'qish –yozishni o'rgangan va ko'p she'r, g'azal va hatto ,dostonlarni yoddan bilgan . U zot o'ziga Ustoz bilgan Fariddidin Attorning "Mantiqut-Tayr" asarini shu yoshida yoddan aytib bera olgan.

2-o'quvchi "Abu Ali ibn Sino bobomiz."

Ibn Sino bobomiz olti yoshdan boshlab matematika, mantiq, falsafa kabi ilmlarni o'rgana boshlagan. U noyob xotira egasi bo'lgan.: 10 yoshida Qur'onni yoddan bilgan . 13 yoshida u aristotel, Ptolomey , Evklid, galen , Gippokrat, Pifagor , Porfiriylar asarlarini o'rganib chiqib ,16-17 yoshida mashhur tabib –hakim bo'lib tanilgan.

3-oquvchi "Zahiriddin Muhammad Bobur "

Farg'ona viloyatining podshohi bo'lgan . U o'shanda tarix, adabiyot , kalom ilmini puxta egallagan, jang sa'natidan boxabar , arab va fors tillarini mukammal bilar edi.

4-o'quvchi "Cho'lpon"

O'n besh yoshida Cho'lpon o'z davrining tanikli shoiri , publististi bo'lgan . Uning mashhur "Adabiyot nadur ?" maqolasi ham shu yoshida yozilgan . U o'shanda beshta tilni bilgan : O'zbek , rus , arab , fors va turk tillarni bilgan.

5-o'quvchi " Mirjalol Qosimov "

O'n to'rt yoshida futbol bo'yicha mamlakat o' smirlar terma jamosi sardori sifatida jahon chempioni bo'lgan . Keyinchalik , o'n besh va o'n olti yoshlarida yana bir martadan jahon va Evropa chempioni bo'lgan .

6-o'quvchi "Rustam Qosimjonov"

Xalqaro grosmeyster, jahon chempioni , shaxmatni besh yoshida o'rgangan . O'n besh yoshiga qadar u mamlakatnihg eng kuchli shaxmatchisi bo'lishga ulgurgan .

Ustoz : Qarang bolalar , mana ko'rib turganingizdek ulug' bobolarimiz va sportchilarimiz bolalikdan iste'dodini shakllantirib borishganiga guvoh bo'ldingiz. Sizlar ham Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek **"Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas , balki bilimdon , ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim"**

Sizlarni ham vatanimiz ravnaqiga ulkan xissa qo'shganigan ,yetuk insonlar bo'lib yetishishingizni astoydil xohlaymiz.

7-o'quvchi ; " Baxtiyor avlodmiz" she'ri.

Ey ona zamin ,jon O'zbekiston,
Dildagi jonu jahonim o'zing.
G'ururim sensan , menga buyuk shon,
Boshim uzra osmonim o'zing .
Hovuch tuprog'ing men uchun gavhar,
Tavof etaman, ey ona yerim.
Shoira emasman ,shoir bo'lsam gar,
Senga atalardi birinchi she'rim.
Odim tashlaymiz shod bo'lib behad,
Pok tuprog'ingni ko'zlardga surta.
Biz Hech kimdan kam bo'lmaymiz albat,
Chunki yashayapmiz mustaqil yurtida.

(Sahna ko'rinishi Sayyoh kiyimidagi chet ellik mehmonlar,**Angliyalik** tadbirkor-
ishbilarmon , **Yaponiyalik** o'qituvchi , **Amerikalik** arxitektor, **Fransiyalik**
bastakor musiqachi , **Korealik** katta yer egalaridan fermer mehmon bo'lib
O'zbekistonni mustaqillikka erishib ,20 yil ichida bo'lgan katta o'zgarishlarini
ko'rish uchun ,

Tashrif buyurgan.Tarjimon ularni savollariga javob bermoqda .)

Amerikalik arxitektor :---- O'zbekistonga bundan 19 –yil oldin mehmonga ish yuzasidan kelgandim ,hozirda men O'zbekistonni taniyolmay qoldim , buyuk o'zgarishlar bo'lib o'tibdi . manavi binolar qanday binolar ?

Tarjimon ;----Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan O'zbekistonning har bir viloyatlarida juda katta qurilish ishlari olib borildi va bunga alohida e'tibor qaratilmoqda ,shu qatorda davlatimiz poytaxti –ko'xna Toshkent ham avvalgidan-da fusunkor,go'zal va qadimiyligini saqlab qolinmoqda .

Prezidentimiz rahnamoligida Toshkentda Mustaqillik monumenti , Xotira xiyoboni , Tasviriy san'at galereyasi Senat binosi , Ezgulik arkasi , Temuriylar tarixi muzeyi ,Biznes markazi , Hozirda esa O'zbekiston xalqaro milliy kutubxonasi va simpoziumlar zali qurib bitkazilish arafasida ekanligini aytib o'tishim mumkin.

Angliyalik arxitektor :- Good,good ,juda zo'r ,O'zbekiston kuchli davlatlar qatoridan joy olishiga ishonchim komil. Amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini ko'rib ko'zim quvondi .

Angliyalik tadbirkor-ishbilarmon ; -O'zbekistonda tadbirkorlarga qanday imkoniyatlar eshigi ochilgan ?

Tarjimon ;----Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan O'zbekistonda **2011-yilni “Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik yili”** deb e'lon qildilar.Ular uchun **“Yosh tadbirkor –elga madadkor”**,**“Yilning eng yahshi innovatsion loyihasi”**, **“Tashabbus** “ ko'rik tanlovlari tashkil etilgan. Xalq banklaridan eng yahshi loyihalari uchun kreditlar berish yo'lga qo'yilgan . Har tomondan tadbirkorlar ishi qo'llab quvvatlanilayapti.

Angliyalik tadbirkor-ishbilarmon ; -Juda yaxshi ishlar olib borilayotkan ekan ,Jahonda O'zbekiston iqtisodi va tadbirkorlik ,biznes ishlari bilan ham ko'zga tashlanib namoyon bo'lishi bejiz emas ekan.

Korealik fermer mexmon – O'ikangizga kirib kelganimda juda ko'zim quvondi ,hamma joylar toza, gullar daraxtlar ko'pligi ,O'zbekistonni yashil o'lka ekanligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Tarjimon ; -Ha, to'g'ri, aytdingiz ,Bizda mustaqilligimizning 20 yilligiga bag'ishlab ,har bir tashkilot, jamoa va xattoki maktab va bog'chalar ham 20-tupdan har bir fuqaro mevali daraxt ekib obodonchilik ishlarida faol qatnashib keldi. O'zbeklarda xo'jalik ishlari , imorat qurish ,ariq-kanallar ochib kelish kabi ishlar ko'pchilik bilan bajariladi. Bu-hashar deyiladi va uning bosh xususiyati beminnat, bepul be'tama , har bir O'zbekiston fuqarosi bajarishi e'tiborga loyiqdir.

Korealik fermer mexmon; Juda ham yahshi ekan bu hashar degani . Demak har bir fuqaro O'zbekistonni gullab yashnashi uchun o'z hissasini qo'shayapgan ekan-da .

-Ha, to'g'ri .

Fransialik bastakor musiqachi; Musiqa sohasida ,san'at sohasida ham o'sishlar ko'zga tashlanayapti.

Tarjimon ; -Ha, to'g'ri, aytdingiz , mamlakatimizda musiqa umuman san'at sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Musiqa maktablari va litseylar qaytadan rekonstruksiya qilindi,hamda yangi musiqa maktablari qurilmoqda.

Yangi serqirra ijodkorlarni toppish maqsadida **“Nihol”**, **“Kelajak ovozi “**, **“Fond forum “**, **“MNTVY”** kabi San'atni sevadigan , she'r yozishga qiziqadigan qizlar uchun **“Zulfiyaxonim”** mukofoti ,kabi ko'rik –tanlovlaro'tkazilmoqda.

Farzandlarimiz esa bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib ,o'z iqtidorlarini namoyish etishmoqda. hi :

Yaponiyalik o'qituvchi: - Ilm –fan sohasiga qanday e'tibor qaratilyapti?

Tarjimon : Respublikamizda eng katta e'tibor **Ilm**-fan sohasiga qaratilgan . O'quvchilarning yahshi bilim olishi uchun zamonaviy maktablar,litsey va kollejlar qad rostladi. Ilm maskanlari,zamonaviy labaratoriya jihozlari,texnik vositalar, kompyuterlar bilan ta'minlandi.

Vatanimizdagi barcha maktablar kapital rekonstruksiya qilindi , O'qituvchilar uchun qo'shimcha ustama haqlar ajratildi ,oylik maoshlari ko'tarildi .Ta'lim sohasida katta islohatlar bosqichma-bosqich olib borilayapti, o'quvchilar uchun turli ko'rik –tanlovlar tashkil qilingan , Ta'lim bepul, 12-yillik ta'lim majburiy . barcha kasbli –hunarli bo'lishga haqli. Olimpiadalar , **“Bilimlar sinovi “** o'quvchilar ichidan bilimli ,zehnilarni tanlab olib ,ularni rag'batlantirilyapti.

“Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi” ham O'zbekistonda o'tkazilganingizdan xabaringiz bor.Iqtidorli o'quvchilar chet mamlakatlarga borib o'zlari tanlagan mutahassislik bo'yicha o'qish baxtiga muvassar bo'lyapti.

Yurtboshimiz mamlakatimizda sportni ,ayniqsa bolalar sportini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar.

An'anaga aylangan maktab o'quvchilarining **“Umid nihollari”** sport musobaqasi va unga bardavom bo'lgan ,bosqichma –bosqich o'tkazilib kelinayotgan

“Barkamol Avlod”, **“Universiada”** kabi nufuzli bellashuvlarda Vatanimizning umidli yulduzlari ,yosh sportchilari ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Quvonarlisi ,O'zbekiston yoshlari sportning barcha turlari bo'yicha jahon miqyosida ham g'alaba qozonmoqda.

Yaponiyalik o'qituvchi -Okey,a'lo, very good.

(Sayyohlarga tushuntirilayotganda monitorda har bir ta'rifga rasmlar ko'rsatib boriladi.)

Qo'shiq ijro etiladi, barcha jo'r bo'ladi.

O'quvchi;- **Dunyo xaritasin naqshi turfa rang,**
 Davralarda o'rni to'rda ,muhtaram.
 Navqiron va azim,go'zal mukarram.
 Hur o'zbekistoni bordur o'zbekning.

Ustoz :

**Chuchuk tillarida ozod
Vatan madxi jaranglaydi
Bari shodon ,ko'zlarida
Qalblarida nur porlaydi.
O'zbekiston bag'ri kengdir,
Farzandlari xor bo'lmagay hech,
Har O'g'il –qiz bu makonda
Mehrga zor bo'lmagay hech.
Cho'qilarni zabt etursan
Bag'ri butun, bolajonim.
Dadil bo'lg'in va ishonchli
Baxtga to'la kelajaging!**

Sizlar kelajak vorislarsiz,O'zbekistonning yanada ravnaq topishi, gullab-yashnashi bizning ,yoshlarning ,kelajak avlodlarimiz zimmasida. Shunday ekan ota-onamiz ,Vatanimiz , yurtboshimiz ishonchini oqlash uchun faqat a'lo baholarga o'qishimiz, odob-ahloq bobida tengdoshlaringizga namuna bo'lishingiz kerak. Vatanimiz qudrati kelajak avlodlarga bog'liq

Ha,bolajonlar! Yurt haqida qo'shiq kuylayotganingiz bejiz emas, chunki sizlarga ko'rsatilayotgan mehr sizlarni yayratadi,Vatan mehri vujudingizga quvvat,qalbingizga harorat va ruhingizga madadkordir.

Farzandlarini avaylab asrayotgan yurtning qudrati tuganmasdir, bunday yurtda yashayotgan har bir bola esa baxtlidir. (Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston qo'shigi yangraydi.)



Mavzu: O'zbekiston jannatmakon –yurt .

Fan : O'qish.

Dars shiori : Ahil bo'lib ,dadil bo'lib qadam tashlaymiz.

Biz buyuk kelajakni , ozod va faravon hayotni qurish
Maqsadida matonat va qatt'iylik bilan mehnat qilamiz.

(I.A.Karimov.)

Dars metodi : Modulli o'qitish ,guruh bilan ishlash, umumlashtiruvchi.

Dars shakli; Noan'anaviy ,musobaqa dars.

Dars jihozi ; Prezidentimiz rasmi, asarlari, davlat ramzlari,
ko'rgazmali plakatlar , Vatanimiz obod maskanlari tasviri tushurilgan
slaydlar,

Tashk iliy qism.

-O'quvchilarni darsga hozirlash.

Guruhlarga bolish (2-guruhga bolinadi)

Darsning borishi :

Oqituvchi ; O'zbekim farzandi, ey o'g'il qizi

Yurtimning ertasi, nurafshon kozi.

Bizlar qurajakmiz ezgu kelajak,

Vatanga kerakli inson bo'laylik.

Barcha millatlarning shoni bizniki

O'qiylik ,izlanib olim bo'laylik.

Yurtimiz dunyoda yagona bo'lsin.

Vatanga kerakli inson bo'laylik.

Vatan shuhratini dunyoga yoyib


Ajdodlar singari buyuk bo'laylik.

Kasb sirin egallab dildan

Vatanga kerakli inson bo'laylik.


Aziz o'quvchilar ! Bugungi darsimiz Vatan mavzusida bo'lib ,Vatan
Tushunchasi, Ajdodlardan qolgan meros, Vatanparvarlik kabi
fazilatlarni shakllantirish ,Vatanimiz buyuk istiqboli, qo'lga kiritayotgan
Ulkan yutuqlari to'g'risida fikrlashamiz



1-guruh .Vatanparvar guruhi uchun dars moduli

O'quv Faoliyat elementi	Savol va topshiriqlar	Bajarish uchun ko'rsatmalar	Vaqt																		
O'FE – 1	Maqsad: O'quvchilarga ona vatan har bir inson uchun aziz va mo'tabarligi, O'zbekiston farzandlar qanday insonlar avlodi ekanligini ;“O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmasligi”lozimligini yodda tutish,shunday daholarga munosib voris bo'lishga intilish – muqaddas burch ekanligini anglash; og'zaki nutqni o'stirib borish. Savol va topshiriqlar. 1. Vatan deganda nimani tushunasiz? 2. Ulug' bobokolonlarimizdan kimlarga o'xshashni xohlaysiz? 3. Buyuk ajdodlarimizga munosib farzand bo'lish uchun nimalar qilishimiz kerak?	Vatan tushunchasi Umumlashtirilib; Veen diagrammasida Tasvirlaydilar. 	5 daqiqa																		
O'FE – 2	Maqsad:Mustaqil fikrlashga o'rgatish. 1.Tadbirkor insonlarni qo'llab – quvvatlash maqsadida Prezidentimiz 2011 – yilni qanday yil deb nomladilar? 2.Kelayotgan 2012 – yilni qanday yil deb nomlashini xohlardingiz? 3.Kasb haqida maqollar ayting 4.O'zbekistonni dunyoga tanitgan milliy boyligimiz haqida, undan olinadigan mahsulotlar haqida topishmoq ayting.	Savollarga to'g'ri javob topish,kasbga doir maqolni aytish. Topishmoqlarni to'g'ri topish.	5-daqiqa																		
O'FE - 3	Maqsad:Yozma nutqni shakllantirish. Slayddagi topshiriqni to'g'ri baajra olish Slaydda vazifa ko'rsatiladi. <table border="1"><tr><td colspan="3">O'zbekistondagi viloyatlarni to'g'ri toping?</td></tr><tr><td>1.Andijon</td><td>6.Toshkent</td><td>11.Farg'ona</td></tr><tr><td>2.Sirdaryo</td><td>7.Navoiy</td><td>12. Ostona</td></tr><tr><td>3.Bishkek</td><td>8.Samarqand</td><td>13.Surxondaryo</td></tr><tr><td>4.Namangan</td><td>8.Boku</td><td>14.Xorazm</td></tr><tr><td>5.Jizzax</td><td>10.Buxoro</td><td>15.Qashqadaryo</td></tr></table> 2.Davlat bayrog'imizda aks etgan ranglarning ramziy ma'nosini tasvirlang. 	O'zbekistondagi viloyatlarni to'g'ri toping?			1.Andijon	6.Toshkent	11.Farg'ona	2.Sirdaryo	7.Navoiy	12. Ostona	3.Bishkek	8.Samarqand	13.Surxondaryo	4.Namangan	8.Boku	14.Xorazm	5.Jizzax	10.Buxoro	15.Qashqadaryo	O'zbekiston hududlariga kiruvchi viloyatlarni to'g'ri Belgilash Bayrog'imiz ramziy ma'nosini to'g'ri yozish va tasvirlash.	5daqiqa
O'zbekistondagi viloyatlarni to'g'ri toping?																					
1.Andijon	6.Toshkent	11.Farg'ona																			
2.Sirdaryo	7.Navoiy	12. Ostona																			
3.Bishkek	8.Samarqand	13.Surxondaryo																			
4.Namangan	8.Boku	14.Xorazm																			
5.Jizzax	10.Buxoro	15.Qashqadaryo																			
O'FE-4	Maqsad: Mustaqil fikrlashga o'rgatish. 1Ozbekistondagi jahon miqyosidagi g'olib bo'lgan, sportchilarimiz nomini topib ,yozing. 2Yurtboshimiz mamlakatimizda sportni ,ayniqsa bolalar sportini rivojlantirish ga katta e'tibor berayapti. An'anaga aylangan uch bosqichli bellashuvlarimiz nomini to'g'ri topib yozing. Test topshiriqlarini to'g'ri yechish. 1“Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch “ Asarini kim yozgan va u nima haqida? A) I.A.Karimov “Ma'naviyat –insonning ulg'ayishi va kuch qudrat manbai” B) Kaykovus “Pand-nasixatlar,o'gitlarhaqida” D)A.Oripov “SHe'r yozish haqida” 2Oz vatanini tark etib Hindistonda yashab o'tgan va ijod qilgan ,vatanni sog'ingan shoir kim? A)Cho'lpon D)Fitrat. B)Z.M.Bobur.	Javoblarni kartochkaga to'g'ri yozib ,doskaga birinchi qo'ygan guruh g'olib bo'ladilar. Testning javobini to'liq ayting .(A-Vatan tarzida)	5-daqiqa																		

O'FE-5	Maqsad:Klasterni to'g'ri bajarish, ongli va tez fikrlash. Buyuk bobokalonimiz qatorida Alisher Navoiy nomini ko'p tilga olamiz ,Navoiy kim bo'lgan .A. Navoiy haqida ma'lumotni klasterga joylang. 2.Vatanini ardoqlab o'ziga tahallus qo'ygan Bobolarni klasterga joylang.	Klasterga to'g'ri javoblarni yozish.	5-daqiqa
O'FE-6	Maqsad; O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini takomillashtirish va yozma nutqini o'stirish. Topshiriq;" Vatanimiz –kelajagini buyuk ‘ mavzusida yozib kelgan matn o'qish.	Har bir gapingizni qisqa va aniq bo'lishiga ,imlo xatolarsiz yozishga e'tibor bering.	5-daqiqa

2-guruh Ma'rifatparvarlar

O'quv Faoliyat elementi	Savol-va topshiriqlar	Bajarish uchun ko'rsatmalar	vaqti																				
O'FE-1	O'quvchilarni ona-vatanni sevishtirishga, vatan haqidagi bilimlarni kengaytirib, mustahkamlashga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga o'rgatish. Ona-yurtiga sadoqatli munosib vorislar bo'lib kamol topishga hissa qo'shish. Og'zaki nutqni o'stirib bo'rish. Savol-javob topshiriqlar. 1. O'zbekistonga ta'rif bering. 2. Jaloliddin Manguberdi kim bo'lgan? 3. Buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug'bekNING qanday asari dunyo olimlari orasida qadrlanadi	O'zbekiston haqidagi ma'lumotlarni Veen diagramasida tasvirlash. 	5-Daqiq																				
O'FE-2	Maqsad: Mustaqil ongli fikrlashga o'rgatish. 1. Kelajakda o'zbekistonga munosib farzand bo'lish uchun nimalar qilishingiz kerak/ 2. Kelayotgan 2012- yilni qanday yil deb nomlanishini xohlaringiz? 3. Vatan haqida maqollar ayting. 4. O'zbekistonda yetishtiriladigan mevalar haqida topishmoqlar ayting.	Savollarga javob topish. Vatan haqida o'tilgan darslardagi maqollardan ayting. Topishmoqlarni eslash.	5-daqiq																				
O'FE-3	Maqsad: Yozma nutqni shakllantirish. Ko'hna shaharlarni bilish, bizning faxrimiz bo'lgan ramzlarni mukammal o'rganish farzandlarimizning burchi ekanligini anglatish <table border="1"> <thead> <tr> <th colspan="4">O'zbekistondagi ko'hna qadimiy shaharlarni to'g'ri toping.</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1</td><td>Toshkent</td><td>5. Bishkek</td><td>9. Ostona</td> </tr> <tr> <td>2</td><td>Marg'ilon</td><td>6. Buhoro</td><td>10. Xiva</td> </tr> <tr> <td>3</td><td>Termiz</td><td>7. Qo'qon</td><td>11. Boku</td> </tr> <tr> <td>4</td><td>Samarqand</td><td>8. Namangan</td><td>12. Shosh</td> </tr> </tbody> </table> 2. Davlat gerbimizda aks etgan ramziy timsollarni tasvirlash, yozib berish 	O'zbekistondagi ko'hna qadimiy shaharlarni to'g'ri toping.				1	Toshkent	5. Bishkek	9. Ostona	2	Marg'ilon	6. Buhoro	10. Xiva	3	Termiz	7. Qo'qon	11. Boku	4	Samarqand	8. Namangan	12. Shosh	O'zbekistonning dunyoga tanikli, ko'hna shaharlarini to'g'ri topa bilish. Gerbni to'g'ri tasvirlash, yozib berish.	5-daqiq
O'zbekistondagi ko'hna qadimiy shaharlarni to'g'ri toping.																							
1	Toshkent	5. Bishkek	9. Ostona																				
2	Marg'ilon	6. Buhoro	10. Xiva																				
3	Termiz	7. Qo'qon	11. Boku																				
4	Samarqand	8. Namangan	12. Shosh																				
O'FE -4	Maqsad: Mustaqil fikrlashga o'rgatish. 1. Vatanimizda yoshlarni iste'dodlarini qo'llab quvvatlash maqsadida qanday ko'rik – tanlovlar tashkil qilingan? 2. Qanday bolalar tashkilotlarini bilasiz? 3. Zulfiya mukofoti kimlarga beriladi va nima uchun? Test topshiriqlarini to'g'ri yeching. 1. O'z vatandoshlarini sevgan va o'z yerini himoya qilgan massagetlar malikasi kim? a) Zulfiya b) To'maris d) Nodirabegim 2. Amir Temur bobomiz qayerda tug'ilgan va kim bo'lgan? a) 1441 – yil 9 – fevralda Xurosonda, shoir bo'lgan. b) 1336 – yil 9 – aprelda Qashqadaryoda, Ulug' sarkarda va shoh bo'lgan. d) 1831 – yil 10 – mayda, xattot bo'lgan.	Javoblarni kartochkaga to'g'ri yozib, doskaga birinchi qo'ygan guruh g'olib bo'ladilar. Testning javobini to'liq ayting. (A-Vatan tarzida)	5-daqiq																				

O'FE-5	1.Buyuk bobomiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi ma'lumotlarni klasterga joylang  2.Vatanimizni kuylagan bobolarimizni klasterga joylang 	Klasterga to'g'ri javoblarni yozish.	5- daqiq.
O'FE- 6	Maqsad:O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini takomillashtirish va yozma nutqni o'stirish. Topshiriq. " Vatan – sajdagoh kabi muqaddas" mavzusida yozib kelingan matnni o'qib berish.	Har bir gapingizni qisqa va aniq bo'lishiga ,imlo xatolarsiz yozishga e'tibor bering.	5- daqiq

Guruhlar javoblari ballanadi, yahshi qatnashgan guruh rag'batlantiriladi. Uy vazifa Vatanga bag'ishlangan she'r yoki hikoya yozish .

TARJIMAI XOL

Boynazarova Dilnoza Djamaliddinovna

1980 yil 14 iyulda tug'ilgan

Oliy ma'lumotli

2005 yilda Toshkent Davlat Pedagogika

Universitetini Maxsus sirtqi bo'limini tugatgan.

1999 yildan Qibray tumanidagi 32-maktabga ishga kirgan.

**2002 yildan buyon Qibray tumanidagi 45-umumiy o'rta
ta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib
ishlamoqda.**

Toifasi: 2.

Oilali: 3 nafar farzandi bor.

